INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA IMLO SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION VA INTERFAOL METODLARNING SAMARADORLIGI

Chorshanbiyeva Sevara Baxtiyor qizi

O‘zMPU Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(Boshlang‘ich ta’lim) 1- kurs magistri

Ilmiy rahbar: **M.A. Hamrayev**,

O‘zMPU Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim

fakulteti professori, filologiya fanlari nomzodi

E-mail: m.a.hamrayev@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida imlo savodxonligini shakllantirish jarayoni, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etishda innovatsion va interfaol metodlardan foydalanishning samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, dars jarayonida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan amaliy metodlar misollar asosida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: imlo savodxonligi, interfaol metodlar, innovatsion yondashuv, boshlang‘ich ta’lim, didaktik o‘yinlar, AKT.

Аннотация. В данной статье анализируется процесс формирования орфографической грамотности у учащихся начальных классов, существующие проблемы, а также эффективность использования инновационных и интерактивных методов в их решении. Кроме того, освещаются практические методы, применяемые в учебном процессе, на основе конкретных примеров.

Ключевые слова: орфографическая грамотность, интерактивные методы, инновационный подход, начальное образование, дидактические игры, ИКТ.

Abstract. This article analyzes the process of developing spelling literacy among primary school students, existing challenges, and the effectiveness of using innovative and interactive methods to address them. It also highlights practical methods that can be applied in the teaching process, supported by relevant examples.

Keywords: spelling literacy, interactive methods, innovative approach, primary education, didactic games, ICT.

Bugungi globallashuv va axborot oqimi kuchaygan davrda o‘quvchilarning savodxonlik darajasi, ayniqsa, imlo savodxonligi muhim ahamiyat kasb etmoqda.O’zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning “O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 - yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF -5712-sonli Farmonida qayd qilinganidek, “ta’lim berishning zamonaviy nazariyalarini o’zlashtirishni, pedagogik psixologiyani tushunish, ta’lim berishga kompetentlik hamda shaxsga yonaltirilgan

yondashuvlar asoslarini egallashni ko'zda tutgan holda pedagoglarni tayyorlash va qayta tayyorlash markazlari faoliyatini qayta ko'rib chiqish" talabi ham savodxonlik bilan chambarchas bog'liqdir. Zero, "xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish maqsadida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan PISA (The Rrogramme for International Student Assessment) umum ta'lim maktablarida ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish" da savodxonlikka erishish xalq ta'limini rivojlantirishning muhim omillaridan ekanligini ko'rsatadi. 1Boshlang'ich sinf bosqichi esa bu jarayonning poydevori hisoblanadi. Aynan shu davrda o'quvchilarda to'g'ri yozish, fikrni aniq ifodalash, yozma nutq madaniyatini shakllantirish asoslari qo'yiladi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, an'anaviy dars usullari (qoidani tushuntirish va diktant yozdirish) o'quvchilarda mustahkam imlo ko'nikmalarini to'liq shakllantira olmayapti. Natijada o'quvchilar qoidani bilsa ham, amaliyotda xatolarga yo'l qo'yadi. Bu esa ta'lim jarayoniga yangicha yondashuvni, ya'ni innovatsion va interfaol metodlardan foydalanishni talab etadi.

Imlo savodxonligi — bu o'quvchining so'z va gaplarni til qoidalariga muvofiq ravishda to'g'ri yozish ko'nikmasidir. U nafaqat yozma nutqning aniqligini, balki o'quvchining umumiy tafakkuri va nutq madaniyatini ham belgilaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutqidagi imlo xatolarining kelib chiqish sababini aniqlamasdan turib, imloviy savodxonlikni shakllantirish haqida gap bo'lishi mumkin emas. Kuzatishlarga qaraganda, asosida boshlang'ich ta'limda imlo xatolarining kelib chiqish sabablarini quyidagicha ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Imlo xatolarga sabab bo'ladigan tashqi ta'sirlar:

1) imlo rejimiga to'liq amal qilinmaslik (sinf va maktab jihozlarida imloga e'tiborsiz qarash);

2) tevarak-atrof ta'siri (ko'cha-ko'ylardagi shiorlarga, bino peshtoqlaridagi yozuvlarga bolaning ko'zi tushadi, natijada ularning imlosi tasavvurida muhrlanib qoladi);

3) sinf jamoasinig tarkibi (turli sheva vakillarining yoki tarbiyaviy jihatdan turli darajadagi oilalar farzandlariningbir sinfga jam bo'lishi va ularning bir-biriga ta'siri).

2. Ona tili ta'limi jarayonida imlo xatolariga sabab bo'ladigan holatlar:

1) imloga o'rgatishda izchillik va uzviylikka amal qilinmasligi;

2) imloga o'rgatishning metod va usullarini to'g'ri tanlay olmaslik;

3) izohlashning turli omillariga e'tibor bermaslik.(o'qituvchining mavzuni tushuntirishda, mustahkamlashda, o'quvchilar bilimini nazorat qilishda o'z nutqidagi muayyan so'zlarga asoslanib qolishi, misollar xilma-xilligiga e'tibor qaratmasligi; Oqibat-natijada o'quvchilarning o'qituvchi aytgan misol – so'zlar bilangina cheklanib qolishi);

4) o'quvchilarda imlo qoidasini amaliyotda tadbiq etish ko'nikmasining shakllantirilmaganligi;

1 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги "Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиклаш тўғрисидаги ПФ-5712-сонли Фармони. ҚҲММБ: 0619/5712/3034-сон. 29 04.2019 й.

5) imloviy sezgirlikning rivojlantirib borilmaganligi.

Ko‘plab darslarda hanuz quyidagi yondashuv ustun:

1. qoidani tushuntirish
2. misol yozdirish
3. diktant orqali tekshirish

Bu metodlar muayyan darajada foydali bo‘lsa-da, quyidagi kamchiliklarga ega.

1. o‘quvchi passiv tinglovchi bo‘lib qoladi
2. ijodiy fikrlash rivojlanmaydi
3. bilim amaliy ko‘nikmaga aylanmaydi
4. qiziqish pasayadi.

Natijada “biladi, lekin yozolmaydi” degan holat yuzaga keladi. Innovatsion metodlar esa ta’lim jarayoniga yangilik kiritib, samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Ularning asosiy afzalliklari:

- o‘quvchi faolligi ortadi

- mustaqil fikrlash rivojlanadi

- o‘rganish jarayoni qiziqarli kechadi

- bilim mustahkam o‘zlashtiriladi

“Insert” metodi. O‘quvchilar matndagi so‘zlarni quyidagicha belgilaydi:

- bilaman (+)

- yangi (–)

- tushunmadim (?). Bu usul xatolar ustida ongli ishlashga yordam beradi.

“Aylanma Diktant” (Jamoaviy mas’uliyatni oshirishda). Sinf kichik guruhlarga bo‘linadi. Har bir guruhga bitta varaq beriladi. Birinchi o‘quvchi bitta gap yozadi va varaqni sherigiga uzatadi. Keyingi o‘quvchi oldingi gapdagi imlo xatolarini tekshiradi va o‘z gapini qo‘shadi. Bu jarayon varaq aylanib chiqquncha davom etadi. Bu metod orqali o‘quvchi nafaqat yozishga, balki boshqalarning xatosini topish orqali hushyorlikni oshirishga o‘rganadi.

“Tushunchalar Tahlili” (Venn diagrammasi). Masalan, “H” va “X” harflari ishtirok etgan o‘xshash so‘zlarni solishtirishda Venn diagrammasidan foydalaniladi. O‘quvchilar so‘zlarning ma’no farqlarini va yozilish xususiyatlarini vizual tarzda farqlaydilar.

“Ssenariy” Metodi (Orfografik ertaklar). Quruq qoidalarni jonlantirish uchun ularni kichik hikoya yoki ertak shakliga keltirish. Masalan, “E” va “U” harflarining so‘z boshida va o‘rtasida kelishi haqida “Sarguzashtlar” yaratish o‘quvchi xotirasida qoidani muhrlab qo‘yadi.

Bundan tashqari, zamonaviy axborot texnologiyalari imlo o‘rgatishni qiziqarli o‘yinga aylantiradi:

Interfaol testlar: Kahoot yoki Quizizz platformalari orqali imlo bo‘yicha tezkor musobaqalar o‘tkazish.

Audio-vizual lug‘atlar: So‘zning ham yozilishi, ham talaffuzi, ham rasmi aks etgan slaydlar lug‘at boyligini oshiradi.

“Xatoni tuzat” simulyatorlari: Kompyuter dasturida berilgan matndagi imlo xatolarini topib, ustiga bosganda to‘g‘ri variant va qoida chiqib kelishi o‘z ustida ishlashni samarali qiladi.

Innovatsion metodlar qo‘llanilgan darslarda quyidagi ijobiy o‘zgarishlar kuzatiladi:

Psixologik qulaylik: O‘quvchi xato qilishdan qo‘rqmaydi, balki xatoni qidirib topishni o‘yin deb qabul qiladi.

Vaqtdan unumli foydalanish: Ko‘p vaqtni oladigan mexanik ko‘chirish o‘rniga, mantiqiy tahlilga urg‘u beriladi.

Individual yondashuv: Interfaol metodlar har bir o‘quvchining o‘z sur’atida ishlashiga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida imlo savodxonligini shakllantirishda innovatsion va interfaol metodlardan foydalanish yuqori samaradorlikka ega. Bu metodlar o‘quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi, bilimni esa ko‘nikmaga aylantiradi. Kelgusida imlo savodxonligini yanada takomillashtirish uchun ta’lim muassasalarida multimedia resurslaridan foydalanishni kengaytirish, har bir imlo qoidasiga oid kreativ didaktik o‘yinlar to‘plamini yaratish va o‘quvchilar o‘rtasida “Eng savodli o‘quvchi” kabi interfaol tanlovlarni muntazam o‘tkazish tavsiya etiladi. Innovatsion va interfaol metodlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ona tili faniga bo‘lgan qiziqishini oshirish bilan birga, ularning kelajakda komil va savodli inson bo‘lib yetishishlarida eng mustahkam ko‘prik vazifasini o‘taydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиклаш тўғрисидаги ПФ-5712-сонли Фармони. ҚҲММБ: 0619/5712/3034-сон. 29 04.2019 й.

2. Ro‘ziyeva Manzura Quvondiqovna. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA IMLOVIY SAVODXONLIK TA’LIM KO‘ZGUSI SIFATIDAJOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH. ISSN (E): 2181-4570

3. G.A.ERGASHEVA. BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINING IMLOVIY SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI. “QAMAR MEDIA” NASHRIYOTI TOSHKENT-2022

4. Davlat ta’lim standarti va o’quv dasturi. -T.: 2017.

5.K. Qosimova va b. Ona tili o’qitish metodikasi. -Toshkent: Noshir. 2009.

6. www.arxiv.uz.